



## O'ZBEK TILINING MORFEMIKA BO'LIMINI O'RGANISH OBYEKTI. MORFEMALARNING AGGLYUTINATIV TABIATI

<sup>1</sup> Mavlonberdiyeva Nafisa Ozod qizi, <sup>2</sup> Xushanov Alisher Oydin o'g'li

<sup>1</sup> Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti, Turkiy tillar fakulteti, O'zbek tili va adabiyoti 1-bosqich talabasi

<sup>2</sup> Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti, Turkiy tillar fakulteti O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili ta'lim yo'nalishi 4-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7227510>

### ARTICLE INFO

Received: 03<sup>rd</sup> October 2022

Accepted: 10<sup>th</sup> October 2022

Online: 19<sup>th</sup> October 2022

### KEY WORDS

Morfemika, asos, qo'shimcha, yetakchi morfema, ko'makchi morfema, lug'aviy shakl yasovchi va sintaktik shakl yasovchi morfemalar, morfema, morf

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada o'zbek tilining morfemika bo'limi haqida ma'lumot, so'zlarning yasalishi, ularning qolipi, so'z yasovchi va shakl yasovchi qo'shimchalar hamda ularning agglyutinativ tabiati yoritib berildi.*

So'zlarning eng kichik ma'noli qismlarini o'rganuvchi tilshunooslik bo'limiga morfemika deyiladi. Morfemalarni o'rganuvchi bo'lim morfemika hisoblanadi. Morfema esa so'zning eng kichik ma'noli qismidir. Morfema asos va qo'shimchalarga ajraladi. Asosning yana boshqa nom bilan nomlanishi "yetakchi morfema" dir. Qo'shimcha esa "ko'makchi morfema" deyiladi. Asosda qo'shimchalar qoshilishi natijasida turli xil ma'nolar yuzaga keladi. Masalan, tin-ch, tin-ish, tin-ch-lik, tin-im-siz, be-tin-im kabi so'zlarning asosi "tin" so'zi, lekin qo'shimcha qo'shilishi bilan ma'no o'zgarib bormoqda. Yetakchi morfema, ya'ni asos, so'zda ishtirok etadigan, so'zning asosiy ma'nosini ifodalagan holda mustaqil qo'llana oladigan qismi, ya'ni so'zning tub ma'noli qismi hisoblanadi. Qo'shimcha, ya'ni ko'makchi morfema, mustaqil qo'llana olmaydigan, asosga qo'shib faqat vazifa bajaradigan qismidir. Masalan, "bil-im-don-lik-dan"

so'zida 5 ta morfema bor: 1 ta yetakchi morfema (asos) bil, 4 ta ko'makchi morfema (qo'shimcha) " -im, -don, -lik, -dan "

Shunday so'zlar borki, ular tarixiy taraqqiyot natijasida o'zining tub - asos qismini o'zgartirishi, boshqacha shaklga kirishi mumkin. Ushbu so'zlarda so'zlarni asos va qo'shimcha qismga ajratib bo'lmaydi: yomg'ir - yom-g'ir, ko'mir - ko'm-mir, olg'a - ol(d)-ga kabi.

Turkiy tillarda ko'pincha birinchi asos, undan keyin qo'shimcha kelishi mumkin. Masalan, shifo-kor, fido-kor, ish-chi, video-chi, tadbir-kor kabi. Bir asosdan yasalgan so'zlar asosdosh so'zlar sanaladi. Masalan, fikrdosh, fikriy, hamfikir kabi. Asosdosh so'zlar tarkibida "so'z yasovchi qo'shimchalar" bo'lishi kerak. Asosdosh so'zlarni aniqlashda asosning bir xilligiga e'tibor beriladi. Masalan, toshloq, toshqin, toshsiz so'zlaridan "toshloq" bilan "toshsiz" so'zlari asosdosh hisoblanadi, chunki



ularning asosi qattiq jism ya'ni tosh bo'lib, "toshloq" –toshi ko'p bo'lgan joy, "toshsiz" esa toshga ega emaslik ma'nolarini anglatadi. "Toshqin" so'zining asosi "toshmoq" fe'li bo'lib, toshish xususiyatiga egalikni bildiradi, shuning uchun "toshloq" va "toshsiz" so'zlari bilan asosdosh hisoblanmaydi.

Ayrim hollarda asosdan oldin ham qo'shmcha qo'shilishi mumkin. Bunday so'zlar, asosan, sifat turkumida uchraydi. Biror narsaga egalikni (badavlat, baquvvat, serfarzand, serqatnov) yoki ega emaslikni (beibo, behayo, noo'rin, nomard) bildiradi. Masalan, batafsil, badavlat, bahaybat, sergap, serhosil kabi. Qo'shimcha qo'shilishi bilan ba'zan asosda tovush o'zgarishlari ro'y berishi mumkin. Masalan,

1. Tovush tushadi: past+ay=pasay, sust+ay=susay, yig'i+la= yig'la kabi.
2. Tovush almashadi: quvna+q=quvnoq, son+a=sana, ong+la=angla kabi.
3. Tovush ortadi: u+ga=unga, shu+ga=shunga, bu+dan=bundan, bu+day=bunday kabi.

So'zlarni morfemalarga ajratishda har doim asosning ma'nosiga e'tibor beriladi. Masalan, "suvchi" so'zi "suv quyish bilan shu g'ullanuvchi shaxs" ma'nosini, "temirchi" so'zi esa "temir bilan ishlaydigan shaxs" ma'nosini anglatadi. So'z yasalishi hodisasi o'zining ichki tuzilishiga ega bo'ladi va 2 ta tarkibiy qismni o'z ichiga oladi: 1) **yasashga asos qism**; 2) **yasovchi vosita**. Yasashga asos qism bilan yasovchi vosita birgalikda yasalmani tashkil qiladi. Masalan, ter(yasashga asos qism) –im (yasovchi vosita) = terim (yasalma). Terim(yasashga asos qism) –chi (yasovchi vosita) = terimchi (yasalma). So'zning yasalish tuzilishi bilan morfemik tuzilishi bir-biridan farqlanadi. So'zning ma'noli qismlarga

bo'linishi uning morfemik tuzilishi hisoblanadi. So'zda nechta ma'noli qism bo'lsa, uning morfemik tuzilishi shuncha qismga ajraladi. Masalan, "terimchi" so'zida 3 ta ma'noli qism mavjud: ter-im-chi. "Terimchilar" so'zida esa 4 ta ma'noli qism ishtirok etgan: ter-im-chi-lar. "Terimchilarga" so'zi 5 ta ma'noli qismdan iborat: ter-im-chi-lar-ga kabi. So'zning morfemik tuzilishi so'z yasovchi qo'shimchalarni ham, shakl yasovchi qo'shimchalarni ham o'z ichiga oladi. So'zning morfemik tuzilishini belgilashda ma'noli qismlar so'z yasovchi yoki shakl yasovchi ekanligining ahamiyati bo'lmaydi. So'zning yasalish tuzilishi esa faqat so'z yasovchi qo'shimchalarnigina o'z ichiga oladi. Shakl yasovchi qo'shimchalar so'z yasalish tuzilishiga kirmaydi.

Ko'makchi morfemalar bu qo'shimchalarning ikkinchi nomi hisoblanadi. Qo'shimcha bu mustaqil qo'llana olmaydigan, asosga qo'shib yangi yoki qo'shimcha ma'no yuklaydigan va so'zlarni bog'lashga xizmat qiladigan qismdir. Ko'makchi morfemalar vazifasiga ko'ra ikki turga bo'linadi: 1)

**so'z yasovchi qo'shimchalar**; 2) **shakl yasovchi qo'shimchalar**. So'z yasovchi qo'shimchalar deb asosga qo'shib yangi ma'no hosil qiladigan qo'shimchalarga aytiladi. Masalan, oq asosiga -la so'z yasovchi qo'shimchasining qo'shilishi natijasida "oq rangga kiritish" ma'noli yangi bir so'z yasaldi. Gul bu o'simlik, gul asosiga -chi qo'shimchasi qo'shib, "gulchi" ya'ni shaxs ma'nosini anglatuvchi yangi bir so'z hosil bo'ldi. Gul+zor=gulzor so'zi o'rin-joy nomi, "guldon" so'zida esa idish, narsa ma'nosini anglatgan. Ularning ma'nosini tahlil qiladigan bo'lsak, "gulchi" so'zi "gul ekish yoki gulni sotuvchi shaxs"ni, "gulzor" – "gul o'sadigan joy" ni, "guldon" so'zida



esa “gul solish uchun mo’ljallangan joy” ma’nosini anglatadi. So’z yasovchi qo’shimchalar, ya’ni morfemalar, tarkibiga ko’ra **SODDA** va **MURAKKAB** bo’ladi. Sodda qo’shimchalar faqat bitta qo’shimchadan iborat bo’ladi. Murakkab qo’shimchalar esa tarkibida birdan ortiq so’z yasovchi qo’shimcha bo’lsa ham, tarkibiy qismga ajratilmaydi. Masalan, “gul-chi-lik” so’zi tarkibidagi “-chi” va “lik” qo’shimchalari sodda qo’shimchalar hisoblanadi; “dehqon-chilik” so’zi tarkibidagi “-chilik” qo’shimchasi murakkab qo’shimcha sanaladi. Agar yasalgan so’z bilan yasashga asos qism o’rtasida ma’no jihatdan bog’lanish bo’lmasa, yasama so’z hisoblanmaydi. Masalan, “tepki” “tepishga xoslangan” so’zi “tep” so’zi bilan mazmunan bog’lanadi, lekin “tulki”, “eski” so’zlarini “tul va ki”, “es va ki” kabi qismlarga ajratilmaydi, chunki “tulki va eski” so’zlari, “tul-beva”, “es-aql, xotira” so’zlari bilan mazmuniy bog’lanmaydi.<sup>ii</sup>

Yetakchi morfemalarga qo’shib yangi so’z hosil qilmaydigan, so’zning turli xil shakllarini vujudga keltiradigan morfemalar shakl yasovchi morfemalar deyiladi. Shakl yasovchi qo’shimchalar asosga qo’shib uning ma’nosiga qo’shimcha ma’no yuklash yoki o’zi qo’shilayotgan so’zni boshqa so’zga bog’lash vazifasini bajaradigan qo’shimchalar hisoblanadi. Masalan, yaxshi+gina, Zamira+xon, ukam+ni, “gul” asosiga -lar qo’shimchasi qo’shib, uning ma’nosidan boshqa yangi ma’no yasamaydi, gulning bittadan ortiq ekanligini bildiradi. Shakl yasovchi qo’shimchalar sintaktik munosabatni bildirish-bildirmasligiga ko’ra 2 ga bo’linadi:

1) sintaktik munosabatni bildirmaydigan morfemalar, ya’ni lug’aviy shakl yasovchilar;

2) sintaktik munosabatni bildiradigan morfemalar, ya’ni sintaktik shakl yasovchi qo’shimchalar. Masalan, yozgach so’zidagi –gach morfemasi “yoz” so’ziga qo’shib undan yangi ma’no yasamaydi va bu so’zni boshqa so’zga bog’lash uchun ham xizmat qilmaydi. Shuning uchun u lug’aviy shakl yasovchi qo’shimcha hisoblanadi. Yetakchi morfemaga qo’shib undan yangi so’z yasamaydigan va o’zi qo’shilgan so’zni boshqasiga bog’lash uchun xizmat qilmaydigan shakl yasovchi morfemalarga lug’aviy shakl yasovchi morfemalar deyiladi. Lug’aviy shakl yasovchilar asosga qo’shib uning ma’nosiga qo’shimcha ma’no yuklaydi. Masalan, kitoblar, kattaroq, qizcha, Salimaxon, Adhambek kabi. “kitobim, daftarim, ruchkam, sumkani” so’zlaridagi “-im, -m, -ni” morfemalari o’zi qo’shilgan so’zni boshqa so’zga bog’lash uchun xizmat qiladi. So’zga qo’shib uning ma’lum morfologik shaklini ko’rsatuvchi va boshqa so’zga bog’lash uchun xizmat qiluvchi shakl yasovchi morfemalarga sintaktik shakl yasovchi qo’shimchalar deyiladi. Ularga **EGALIK, KELISHIK, SHAXS-SON** qo’shimchalari sintaktik shakl yasovchi qo’shimchalar sanaladi.

So’zning ma’noli qismlari ma’lum bir tartibga ega. Asosga avval so’z yasovchi qo’shimcha, so’ng lug’aviy shakl yasovchi qo’shimcha, eng oxirida esa sintaktik shakl yasovchi qo’shimchalar qo’shiladi. Ularning joylashish qolipi quyidagicha:

**ASOS+SO’Z** **YASOVCHI**  
**QO’SHIMCHA+LUG’AVIY** **SHAKL**  
**YASOVCHI QO’SHIMCHA +SINTAKTIK**  
**SHAKL YASOVCHI QO’SHIMCHALAR.**

Masalan; kitob+xon+lar+ga so’zida kitob –



asos, -xon –soʻz yasovchi qoʻshimcha, -lar -lugʻaviy shakl yasovchi qoʻshimcha, -ga –sintaktik shakl yasovchi qoʻshimcha. Agar asosga soʻz yasovchi qoʻshimcha, shakl yasovchi qoʻshimchalar 2 tadan qoʻshilsa, ular ketma-ket ulanadi, yuqoridagi tartib buzilmaydi. Masalan, mulk-dor-lik, bil-im-li, joʻsh-qin-lik, koʻk-ish-roq, ket-a-yotir-man, sinf-dosh-lar-im-dan, bor-a-yotgan-ingiz-ni, varaq-la-sh-ni kabi. Ayrim sifatlarda bu tartib oʻzgarishi mumkin. Sifat yasovchi old qoʻshimchalar asosdan oldin keladi. Masalan, no-toʻgʻri, ham-suhbat, be-maʻni, ba-davlat kabi soʻzlarda **SOʻZ YASOVCHI +ASOS** koʻrinishida boʻladi. Baʻzi yasama ot va sifatlarda esa soʻz yasovchi qoʻshimchadan oldin lugʻaviy shakl yasovchi qoʻshimcha kelishi mumkin. Masalan, isi-t-ma, isi-t-kich, qayna-t-ma, maqta-n-choq, yashir-in-cha, ye-yish-li kabi soʻzlarda **ASOS+LUGʻAVIY SHAKL YASOVCHI +SOʻZ YASOVCHI** koʻrinishida boʻladi. Shuni unutmash kerakki, bunday yasaliq qolipida soʻz yasovchi qoʻshimchalardan oldin keladigan lugʻaviy shakl yasovchi qoʻshimchalar, asosan, feʻl turkumida uchraydigan nisbat va feʻlning vazifa shakllari sanaladi. **OʻZLIK, MAJHUL, ORTTIRMA NISBAT QOʻSHIMCHALARI** soʻz yasovchi qoʻshimchalardan oldin qoʻshiladi. Masalan, Oʻzlik nisbati: maqta+N+choq, yashir+ in+cha, kuy+in+chak, kabi. Majhul nisbat: qur+il+ma, qaz +il+ma, yon+il+gʻi, yoq+il+gʻi, qoʻl+la+n+ma kabi. Orttirma nisbat: isi-t-ma, koʻr-sat-ma, koʻr-sat-kich, koʻr- gaz- ma, sovi-t-gich, muz-la-t-gich, ili-t-ma, ivi-t-ma, qayna-t-ma, bos-tir-ma, oʻch-ir-gʻich, qisqa-r-t-ma, koʻp-ay-t-ma, tarqa-t-ma kabi.

Feʻlning vazifa shakllari hisoblangan **SIFATDOSH** va **HARAKAT NOMI** qoʻshimchalari soʻz yasovchi

qoʻshimchalardan oldin qoʻshiladi. Masalan, **SIFATDOSH**: yet-ar-li, zerik-ar-li, qiziq-ar-li, esla-gan-lik, ayt-ar-li soʻzlarida -ar qoʻshimchasi **SIFATDOSH**, -li, -lik qoʻshimchalari esa soʻz yasovchi qoʻshimcha hisoblanadi. **HARAKAT NOMI**: ye-yish-li, oʻqi-sh -li kabi soʻzlarda -ish qoʻshimchasi harakat nomi, -li qoʻshimchasi esa soʻz yasovchi qoʻshimcha sanaladi. Baʻzi soʻzlar **ASOS+SINTAKTIK SHAKL YASOVCHI +SOʻZ YASOVCHI** qolipida ham uchraydi. Masalan, oʻz-i-cha, atrof-da-gi, uy-da-gi kabi. Ayrim soʻzlarda esa **ASOS+SOʻZ YASOVCHI QOʻSHIMCHA +LUGʻAVIY SHAKL YASOVCHI QOʻSHIMCHA + SOʻZ YASOVCHI QOʻSHIMCHA** qolipi ham uchraydi. Masalan: es-la-gan-lik, qisqa-r-t-ma, koʻp-ay-t-ma, muz-la-t-gich kabi.

“ Oʻzbek tili asrlar davomida arab, fors-tojik hamda rus tillari bilan oʻzaro aloqada yashab kelgan. Buning natijasida tilimizga oʻsha tillarga xos yasalmalar va soʻz yasaliq qolipi ham oʻzlashdi. Shulardan biri old qoʻshimchali soʻzlar va old qoʻshimchalar hisoblanadi. Ular tilimizga fors-tojik tilidan kirgan boʻlib, asosan, sifat turkumida uchraydi”. Bular quyidagilar:

ba-: **batafsil, badavlat, bahaybat,**  
be-; **bexavotir, begʻubor, befarosat;**  
no-: **noumid, norozi, noqulay, nomard;**  
ser- : **sergap, serzavq, serhosil.**

Ba-, ser- qoʻshimchalari, asosan, otga qoʻshilib asosdan anglashilgan belgi-xususiyatning meʻyordan ortiqligini bildirsa, be-, no- qoʻshimchalari xuddi shu narsalarga ega emaslikni anglatadi. Masalan; baquvvat, sermaʻno – behayo, nooʻrin. Ushbu qoʻshimchalar -li, -siz, -dor qoʻshimchalari bilan sinonim boʻla oladi. Masalan; **badavlat** – davlatli, **beqiyos-qiyossiz**, **nooʻrin** – oʻrinsiz, **sertashvish** – tashvishli kabi. Ayrim soʻzlarda mazkur qoʻshimchalarni sinonimlari bilan



almashtirib bo'lmaydi. Masalan;” Nomard ( – mardsiz deb ishlatib bo'lmaydi ) bo'lib ko'pga kirguncha mard bo'lib o'lgan yaxshi”. “ Serdaraxt (daraxtli tarda ishlatib bo'lmaydi) qishloqni sel olmas”. Be-qo'shimchasini ayrim so'zlarda -siz qo'shimchasi bilan mutlaqo almashtirib bo'lmaydi. O'zaro sinonim bo'lgan bu qo'shimchalar qo'shilganda so'zlarning lug'aviy ma'nosi o'zgarib ketadi. Masalan; bebosh – boshsiz, bechora – chorasiz kabi. “ Morf nutqning morfologik yarusidagi eng kichik ma'no anglatuvchi birligi bo'lsa, morfema tilning morfologik yarusidagi eng kichik ma'no anglatuvchi birligidir”. Morf va morfema har doim ham bir-biriga teng kelavermaydi. Morfema nutqda bitta morf orqali yoki ba'zi hollarda bir necha morf orqali ifodalanishi mumkin. O'zbek tilida otlardagi ko'lik qo'shimchasi bitta -lar morfemasi bilan ifodalanganligi sababli, bunday hollarda morf va morfema bir-biriga mos keladi. <sup>iii</sup>

“Nutqda mustaqil ishtirok eta olishi va eta olmasligi jihatidan morflar ikki turga ajratiladi: 1. Mustaqil ishtirok eta oladigan morflar: ot, tez, dars, va, ham, bilan; 2. Mustaqil ishtirok eta olmaydigan morflar: -lar, -ni, -cha, -dek, -chi, -zor kabi qo'shimchalar. Bu turkumga kiruvchi morflar doimo mustaqil so'z turkumlariga qo'shilib keladi. Morflarning bu turlari o'z navbatida anglatgan ma'nolariga ko'ra **leksik ma'no anglatuvchi mustaqil morflar va grammatik ma'no anglatuvchi mustaqil morflarga ajratiladi.** Mustaqil leksik morflar narsa-hodisalarni anglatadi. Masalan; ot, dars, tez kabi. **Grammatik morflar** mustaqil ishlatilsa-da, mustaqil leksik ma'no anglatmaydi, ular so'zlarning grammatik shakllarni hosil qilish va gaplar ichidagi so'zlar orasida grammatik munosabatlar o'rnatishga xizmat qiladi.

Bunday morflarga ko'maakchi, bog'lovchi, predloglar, artikllar, yordamchi fe'llar va boshqalar kiradi.”<sup>iv</sup> Mustaqil ishlatila olmaydigan morflar **affiksial morflar** deb ham ataladi. Affiksial morflar o'z navbatida 2 turga bo'linadi: 1. **Yangi so'z yasovchi leksik morflar**; 2. **Shakl (forma) yasovchi grammatik morflar** So'z yasovchi affiksial morflardan yangi so'z yasash uchun foydalaniladi. So'z yasovchi affiksial morflar asosga qo'shilgan holda shu asosning ma'nosi bilan bog'lanib yangi ma'nodagi so'z hosil qilishda ishtirok etadigan morflar hisoblanadi. So'z yasovchi affiksial morflarning yana bir nomi tobe leksik morflardir. Chunki ular so'zlarga qo'shib, yangi so'z yasashda bevosita ishtirok etadi. Grammatik affiksial morflar so'zlarga qo'shilganda, ularning leksik ma'nolarini o'zgartirmaydi, balki so'zlarning grammatik shakllarini o'zgartirishga va so'zlar orasidagi ma'lum grammatik munosabatlar o'rnatishga xizmat qiladi. Ushbu ikki vazifadan qaysi birini bajarishiga qarab, grammatik affiksial morflar o'z navbatida yana 2 turga bo'linadi: 1) so'z o'zgartiruvchi affiksial grammatik morflar, ya'ni fleksiyalar; 2) shakl, ya'ni forma yasovchi grammatik affiksial morflar.

“**Shakl, ya'ni forma yasovchi grammatik affiksial morflar** deb so'zning leksik ma'nosini o'zgartirmay, u anglatgan hodisa va narsalarning borliqqa munosabatini ifodalaydigan morflarga aytiladi. Bu morflarga o'zbek, rus, ingliz, fransuz, nemis tillaridagi ko'plikni anglatuvchi morflar, sifat va ravish darajalarini yasaydigan morflar kiritilishi mumkin. So'zning so'z birikmalari va gaplardagi boshqa so'zlarga aloqasini, munosabatini ko'rsatishga xizmat qiladigan morflar **so'z o'zgartiruvchi affiksial grammatik morflar** deyiladi. Ushbu morflarga



tillardagi kelishik kategoriyalarining qo'shimchalari kiradi. O'zbek tili misolida bu ikki xil grammatik morf orasidagi farqni ko'rish mumkin. Masalan, Sen uni chaqirding. Sen ularni chaqirding. Ushbu ikki gapdagi tushum kelishigining ko'rsatkichi -ni ning ishlatilishi majburiy, aks holda so'zlar bir-biri bilan bog'lanmaydi, ammo ko'plik qo'shimchasi -lar ning ishlatilishi majburiy emas; uning bor bo'lishi yoki bo'lmasligi mazkur gaplarda so'zlarning o'zaro bog'lanishiga aloqasi yo'q. Affiksial morflar o'zakka nisbatan joylashishi nuqtai nazaridan **uch turga** bo'linadi: **1. Prefiksial morflar ; 2. Infiksial morflar ; 3. Pastfiksial morflar.**

**Prefiksial morflar** o'zakning oldida joylashadi. Masalan; **befarq, badavlat, изгнать, починить, наилучший, rewrite, disclose, unusual.** Prefiksial morflar bu old qo'shimchalar hisoblanadi. Old qo'shimchalar esa asosdan oldin keladi. "**Infiksial morflar** o'zakning ichiga joylashgan bo'ladi. Bu morfga eng yaxshi misol lotin tilidan keltirish mumkin. Masalan, *findo* so'zidagi *n* infiksial morf bo'lib, fe'lning hozirgi zamon qo'shimchasidir. Bu so'z *fid* ( sanchmoq)

degan infinitivedan yasalgan. Ba'zi olimlar ingliz tilidagi ayrim so'zlarning ko'plik shaklining yasalishi infiksial morfga misol qilib ko'rsatishadi. Masalan; *foot – oyoq, feet – oyoqlar, man – kishi, men- kishilar, child – bola, children – bolalar.* **Pastfiksial morflar** ko'pchilik tillarga xosdir. Postfiksial morf o'zakdan keyin joylashgan bo'ladi. Masalan; **sinf****dosh, paxta****dan, oyna****dek, спутник, белый. **Ingliz tilidan** : painting, worker, freedom " Pastfiksial morf bu asos qismidan keyin qo'shimcha kelishidir, ya'ni **asos + qo'shimcha** qolipdagi yasaliş hisoblanadi."v**

O'zbek tilining ushbu morfemika bo'limida so'zlarning yasaliş, tuziliş, so'z yasovchi qo'shimchalarning o'z o'rnida qo'shib yangi ma'noli so'z yasab yoki shakl yasovchi qo'shimchalarni so'z asosiga qo'shgan holda so'zning ma'nosiga qo'shimcha ma'no yuklanib, so'zlarning va qo'shimchalarning ma'nodoshligi bilan o'zbek tili yanada boy hisoblanadi. Ushbu mavzuni o'quvchilarga oson usullarda, ya'ni har xil slayd, videorolik hamda boshqa qulay sharoitlarda o'rgatilsa natija, albatta, biz kutganimizdek chiqadi.

## References:

- 1.N.Erkaboyeva."o'zbek tilidan ma'ruzalar to'plami". "Yosh kuch" nashriyoti, Toshkent-2019
2. M.T.Irisqulov."Tilshunoslikka kirish". "Yangi asr avlodi",2019-yil